

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILAN INDIVIDUAL ISHLASHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA TA'SIRI**

*Xalqaro Nordik universiteti **Abdukarimova Xolida Shavkat qizi** 4-bosqich talabasi*

**Suyarova Nazira**

*Angren shahar 37-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual ishlash jarayonida samarali pedagogik yondashuvlar, uning nazariy asoslari va amaliy tatbiqi haqida tahlil qilinadi. 2023–2024 o'quv yili davomida uchta maktabda olib borgan kuzatuvim va suhbatlarim asosida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda individual ishlashning samaradorligini aniqladim. Maqolada individual ishning pedagogik mahorat, motivatsiya, muloqot va ota-ona hamkorligi orqali qanday kuchaytirilishi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** individual ishlash, boshlang'ich ta'lim, pedagogik strategiya, motivatsiya, o'quvchi, ota-ona hamkorligi, pedagogik yondashuv, kuzatuv, diagnostika.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual ishlash – bu nafaqat bilim berish, balki har bir bolani ijtimoiy, tarbiyaviy va intellektual jihatdan rivojlantirish jarayonidir. Zamonaviy pedagogika tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchining muvaffaqiyati 50–60% maktab tashqarisidagi, ya'ni oilaviy muhit va shaxsiy e'tibordan kelib chiqadi (Epstein, 2011; Hoover-Dempsey, 2005). Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun har bir o'quvchi bilan individual ishlash pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. An'anaviy darslarda individual yondashuv ko'pincha cheklangan: o'qituvchi barcha o'quvchilarga bir xil talablar qo'yadi, natijada o'quvchilarning individual qobiliyatlari e'tiborga olinmaydi. Natijada bilim, iqtidor va qiziqish darajasidagi farqlar pedagogik nizolar va motivatsiya pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga, individual ishning samarali tashkil etilishi o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash imkonini yaratadi.

Individual xususiyatlarni hisobga olish – har bir o'quvchi bir-biridan farq qiladi: qobiliyati, psixikasi, diqqatini jamlash qobiliyati, xotirasi, motivatsiyasi va qiziqishlari har xil bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi har bir bola bilan ishlashda ularning o'ziga xos jihatlarini inobatga olishi zarur. Masalan, bir bola matematikani tez o'rganadi, boshqasi esa ko'proq vizual yoki amaliy mashqlar orqali o'rganadi. Oilaviy muhitni hisobga olish – o'quvchining o'sishi va bilim olishiga uning uy sharoiti, ota-ona ishtiroki, oilaviy qo'llab quvvatlash va ijtimoiy-madaniy muhit ham ta'sir qiladi. Masalan, ba'zi bolalar uyda ota-onasidan yordam oladi, boshqalari esa

o'z-o'zidan ishlashi kerak. Shu nuqtai nazardan individual yondashuvda bu holatlarni hisobga olish muhim. Natija – o'quvchining individual xususiyatlari va oilaviy sharoitini hisobga olgan holda pedagogik ish olib borish, uning o'rganish samaradorligini oshiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi va psixik barqarorligini saqlashga yordam beradi. Yuqorida aytilganlarni o'zbek pedagogika fanida Muslimov (2013), Yo'ldoshev (2015), Nishonova (2018) o'quvchining individual xususiyatlari va oilaviy muhitni hisobga olgan holda ishlashning ahamiyatini ta'kidlab o'tishgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual ishlashning pedagogik yondashuvlari maktab ta'limining eng asosiy, eng murakkab va eng muhim yo'nalishlaridan biridir, chunki maktabgacha yoshdan farqli o'laroq, boshlang'ich sinfda bola nafaqat bilim oladi, balki u o'zining fikrlash uslubini shakllantiradi, psixik jarayonlarini boshqarishni o'rganadi, diqqatni jamlash, his tuyg'ularni boshqarish, mustaqil qarorlar qabul qilish kabi murakkab qobiliyatlarni o'zlashtiradi, shu sababli o'qituvchi uchun individual ishlash bu oddiy metod emas, balki har bir bolaning shaxsiy o'sish xaritasini yaratish demakdir.

Pedagogik psixologiya nazariyasi shuni ko'rsatadiki, har bir bola boshqacha psixik jarayonga ega bo'ladi; diqqatning davomiyligi, xotiraning faol komponenti, hissa qo'shish va fikrni obyektiv baholash kabi jarayonlar farq qiladi. Masalan, ba'zi 1 sinf o'quvchilari diqqatini 10–12 daqiqadan oshira olmaydi, boshqalari esa vizual tasvir yoki qo'shimcha materiallar yordamida 20 daqiqa ham kontsentratsiyada qolishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, motivatsiya va fikrlash usullarini ideal tarzda uyg'unlashtira olishi kerak. Individual ishlash yondashuvi sistemali pedagogik muloqot nazariyasiga tayanadi, bu nazariya o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi uzluksiz, chuqur muloqotni taqozo etadi, bunda o'qituvchi nafaqat bilim uzatadi, balki o'quvchining fikrini, hissiyatini va e'tiborini anglab yetadi, shuning uchun ham bu yondashuvda motivatsiya va e'tibor – o'quvchining qiziqish va qobiliyatini aniqlash muhim komponent hisoblanadi. Motivatsiya bo'lmasa, hech qanday metodika samarali bo'la olmaydi, chunki bola o'ziga «Nimani o'rganayapman, nima uchun?» degan savol bilan yondashishi kerak, shunda u o'qishga befarq bo'lmaydi, balki har bir darsni o'zining shaxsiy intellektual tajribasi deb qabul qiladi. O'quvchiga aytiladigan so'zlar qisqa, tushunarli va ijobiy bo'lishi kerak:

- “Sen buni qila olasan, men senga yordam beraman.”
- “Ajoyib! Shu tarzda davom et, sen yaxshi natija ko'rasan.”
- “Har bir xato – bu yangi imkoniyat o'rganish uchun.”
- “Sen juda aqlli va mehnatkashsan, shu sababli bu vazifani ham uddalaysan.”

Bu so'zlar bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, yangi narsani o'rganishga qiziqishini uyg'otadi va shu bilan birga Qisqa psixologik motivatsion mashq orqali o'quvchiga psixologik yordam va o'ziga ishonch berish mumkin.

Mashq tartibi:

O'quvchi stolga o'tiradi, ko'zlarini yumadi va chuqur nafas oladi.

O'qituvchi tinch va ijobiy ovoz bilan aytadi:

"Tasavvur qil, sen yangi narsani o'rganyapsan va har bir qadamda kuchayib boryapsan."

"Har bir kichik g'alaba seni katta muvaffaqiyatga olib boradi."

O'quvchi ko'zlarini ochadi va bir kichik muvaffaqiyatini aytadi:

Masalan: "Men bugun yangi misollarni eslab oldim."

O'qituvchi bolani rag'batlantiradi va qo'lini qattiq siqadi yoki boshini silaydi: "Zo'r, shu yo'lda davom et!"

Natija: Bu mashq o'quvchida psixologik barqarorlik, motivatsiya va o'zini qadrlash hissini kuchaytiradi.

O'quvchining mavzuni oson tushunishi muvaffaqiyati o'qituvchining malakasi bilan bog'liq. Shu sababli o'qituvchilar uchun seminarlar, treninglar va master-klasslar tashkil qilinishi zarur. Bu orqali ular bolalarning psixikasini tushunish, motivatsiya berish va individual mashg'ulotlarni samarali o'tkazish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshiradi.

Pedagogik strategiya — bu individual bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning amaliy mexanizmi bo'lib, 1 4 sinf o'quvchilari uchun metodika kitoblarida yoritilgan usullarni psixik xususiyatlarga moslashtirishni talab qiladi. Pedagogik strategiya shundan iboratki, o'qituvchi bilim berayotgan mavzuni kichik, boshqariladigan qadamlar shaklida taqdim etadi, har bir qadamni o'quvchi mustaqil ravishda qamrab oladi, so'ng uni navbatdagi darajaga bosqichma bosqich olib chiqadi. Masalan, yangi harfni o'rgatayotganda, avval ularni tanish, ko'rinish, talaffuz va yozilish shakllaridan boshlab, so'ngra oddiy so'zlar tuzish, so'ng murakkab kombinatsiyalarni yaratish kabi bosqichlar orqali o'tadi. Bu jarayon o'quvchining xotira va diqqatini zamonaviy psixopedagogik qoidalar asosida mexanizmlashtiradi. Individual ishlashda ota ona bilan hamkorlik ham ajralmas qismdir, chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi maktabda olgan bilimni uy sharoitida mustahkamlashi, qayta tiklashi va ko'proq amaliy mashqlar bajarishi kerak. Ota ona pedagog bilan birga o'quvchining kuchli va zaif tomonlarini bilib, uy sharoitida qo'llab quvvatlashi, unga kichik e'tibor, motivatsiya va tasdiq berishi lozim. Bu jarayon ota onaning ijobiy, tinch muloqoti orqali o'quvchining ijtimoiy psixik barqarorligini oshiradi. Zero zaif o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan uyda ota ona bilan takrorlanmasa o'qituvchi dars davomida qancha mashaqqat bilan o'rgatmasin

o'quvchida hech qanday natija bo'lmaydi. Ota ona o'qituvchi doimo hamjihatlikda aloqada ishlash kerak. Ota-ona farzandning kuchli va zaif tomonlarini bilishi juda muhim. Ular uyda bolani qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va mashg'ulotlarni mustahkamlash orqali o'quv jarayonini mustahkamlaydi. Masalan, matematikada qiyinchilik ko'rsatayotgan bola uchun ota-ona uyda qisqa va oson mashqlarni berishi mumkin, bu esa o'quvchining o'ziga ishonch hosil qilishiga yordam beradi. Shu tarzda ota-ona va o'qituvchi birgalikda bolaga mos ta'lim muhitini yaratadi.

Tajribada ikkita guruh o'quvchi ishtirok etgan:

1. Sinov guruhi – 24 nafar o'quvchi. Bu guruhda har bir o'quvchiga alohida, individual yondashuv bilan dars berilgan. Masalan, har bir bola bilan alohida suhbat, mashg'ulot va topshiriqlar berilgan uyda ham muntazam ravishda ota ona nazoratida dars qilingan .

2. Boshqaruv guruhi – 28 nafar o'quvchi. Bu guruh an'anaviy usul bilan o'qitilgan, ya'ni darslar umumiy tarzda, hamma o'quvchilar bir xil usulda o'qigan.

Natijalar shuni ko'rsatadi: individual yondashuv bo'lgan guruh (24 bola) boshqaruv guruhidagi (28 bola) o'quvchilarga nisbatan yaxshiroq natija ko'rsatgan: ko'proq suhbat, ota-onaning ko'proq ishtiroki, o'rta bahosi yuqori va maktabga bo'lgan qiziqishi ortgan. Sodda qilib aytganda 24 bola alohida e'tibor olgan, 28 bola esa umumiy dars olgan. 24 bolalik guruh ko'proq rivojlangan. Individual ishlash pedagogik tadqiqotlarda ko'p yillar davomida o'rganilgan. Epstein (1987) ota-ona va maktab hamkorligini o'rganib, o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda faol ishtirokni ta'kidlaydi. Shuningdek, Hoover-Dempsey va Sandler (2005) tadqiqotlarida ota-onaning farzand bilan mustaqil ishlashi, shaxsiy yondashuv va motivatsiya oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Individual ishlash jarayonida o'quvchilarga oson o'rgatish usullari ham juda muhim hisoblanadi, chunki boshlang'ich sinfda har bir bola psixik jarayonlarni ongli boshqara olmaydi va bu jarayonni sodda, qiziqarli, interaktiv va amaliy holatlarda qo'llash zarur. Masalan, yangi matematik tushunchani o'rgatishda o'yinlar orqali sonlarni qo'shish va ayirish mashqlarini tashkil etish yoki til darsida harflarni hikoya elementlari bilan bog'lab o'rgatish bola motivatsiyasini oshiradi, uning diqqatini uzoqroq davom ettiradi va bilimni uzoq vaqt eslab qolishga yordam beradi. Shu bilan birga integratsiyalashgan mini darslar olib borish kerak. Rasm darsini ona tili darsi bilan bog'lab, masalan sifat mavzusini tushuntirganda o'quvchilarga hayvonlarni rasminichizdirib uni bo'yatib o'quvchini o'ziga gapirtirish kerak. Rasmga qarab nima chizganini uning rangini, harakterini, xil-xusisiatini aytib bersa yanada yodida qoladi. Sonlarning turlari mavzusini matematika bilan bog'langan holda tushuntirilsa masala va misollar bilan sanoq son va kasr sonni o'rganishi

osonlashadi. Vizual yordamlar – diagrammalar, chizmalar, rangli kartalar – psixik jarayonni qo'llab quvvatlaydi, bu esa xotira va idrokni mustahkamlaydi.

1. Tahlil bosqichi: Bu bosqichda o'qituvchi har bir o'quvchining qobiliyatlari, bilim darajasi, o'qish tezligi va xulq-atvorini aniqlaydi. Masalan, ba'zi o'quvchilar matematikani tezroq tushunadi, boshqalari esa so'z boyligini oshirishga ko'proq vaqt talab qiladi. Shu ma'lumotlar asosida o'qituvchi har bir bola bilan qanday ishlashni belgilaydi. Bu bosqichda o'quvchining psixologik holati ham e'tiborga olinadi: u darsga qanchalik diqqat bilan qaraydi, ijtimoiy muhitga moslashishi qanday, qaysi mavzularni qiyinroq qabul qiladi va qaysi mavzularga qiziqadi.

2. Rejalashtirish bosqichi: Tahlil natijalari asosida o'qituvchi har bir o'quvchi uchun maxsus mashg'ulotlar, uy vazifalari va qo'shimcha topshiriqlarni belgilaydi. Masalan, o'quvchi matematikani yaxshi tushunadi, lekin o'qish va yozishni rivojlantirishga ehtiyoj seziladi. Shu sababli unga qo'shimcha o'qish mashqlari beriladi va dars davomida alohida e'tibor ajratiladi. Bu bosqichda o'qituvchi shuningdek, ota-onalarni ham jalb qiladi, ular uyda bolani qanday qo'llab-quvvatlashi kerakligini biladi. Maqsad – har bir bola o'z imkoniyatlariga moslashtirilgan darslardan maksimal foyda olish.

3. Ijro bosqichi: Bu bosqichda rejalashtirilgan ishlar amalga oshiriladi. Individual mashg'ulotlar dars vaqtida yoki alohida sessiyalarda olib boriladi. Masalan, o'quvchiga dars davomida individual vazifalar beriladi, savollar berib, tushunmagan joylari aniqlanadi va tushuntiriladi. Bu bosqichda o'qituvchi bola bilan doimiy muloqot qiladi, uni rag'batlantiradi va dars jarayonida motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, bola psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlanadi, o'zini ishonchli his qiladi, bu esa o'rganish jarayonini yengillashtiradi.

4. Baholash va qayta aloqa bosqichi: Har bir mashg'ulotdan so'ng o'quvchining rivojlanishi monitoring qilinadi. O'qituvchi natijalarni baholaydi: bola qaysi mavzuni yaxshi tushundi, qaysi mavzularda yordamga muhtoj. Ushbu natijalar ota-onalar bilan muhokama qilinadi, ular uyda qanday yordam berishi mumkinligi ko'rib chiqiladi. Shu tarzda bola o'zining yutuqlarini ko'radi va rag'batlanadi. Bu bosqich doimiy qayta aloqani ta'minlaydi, ya'ni bola va o'qituvchi o'rtasida samarali muloqot bo'ladi, o'quvchining psixikasi ijobiy tarzda rivojlanadi va maqsadga erishish yo'lida to'g'ri yo'l tanlanadi.

Bu pedagogik va psixologik metodikalardan shakllangan amaliy model bo'lib, uning ildizi bir nechta nazariyalarga va tajribalarga borib taqaladi.

Bakhtin (1981) – sistemali pedagogik muloqot nazariyasi: Bu nazariya ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot, dialog va o'zaro aloqaning muhimligini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqqan holda, pedagog har bir

o'quvchining qobiliyatini, psixik xususiyatlarini aniqlash zarurligi tushuniladi – bu tahlil bosqichi bilan mos keladi.

Bertalanffy (1968) – tizimli yondashuv: Bu yondashuv ta'limni tizim sifatida ko'rishni o'rgatadi. Har bir element (o'quvchi, o'qituvchi, ota-ona, dars muhiti) o'zaro bog'liq ekanini hisobga oladi. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchi o'quvchining individual ehtiyojini aniqlab, rejalashtirish va ijro bosqichlarini tuzadi, va oxirida natijalarni kuzatadi (baholash va qayta aloqa). O'zbek pedagogik tadqiqotlari: Muslimov (2013), Yo'ldoshev (2015), Nishonova (2018) kabi olimlar individual yondashuvni o'quvchining xususiyatlariga moslashtirish zarurligini, shuningdek ota-onaning faol ishtirokini va muntazam monitoringni tavsiya qilgan. Shu tadqiqotlar amaliyotga tatbiq qilinganda, to'rt bosqichli model shakllangan. Xulosa qilib to'xtalgandan bu to'rt bosqich – pedagogik metod va nazariyalarni birlashtirgan amaliy model, uni Toshkentdagi maktab tajribalari va boshqa pedagogik tadqiqotlar asosida qo'llash mumkin.

Individual yondashuvni bir zumda kiritish samarali bo'lmaydi. Avvalo, o'qituvchi har bir o'quvchining qobiliyati, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlash (tahlil bosqichi) va ularga mos mashg'ulotlar rejasini tuzish (rejalashtirish bosqichi) zarur. Shundan so'ng, darsda yoki alohida sessiyalarda bu reja bo'yicha ish olib boriladi (ijro bosqichi) va oxirida natijalar monitoring qilinadi, ota-ona bilan baham ko'riladi (baholash va qayta aloqa bosqichi). Bu bosqichma-bosqich yondashuv o'quvchining psixikasini ortiqcha bosimsiz rivojlantirishga yordam beradi va motivatsiyani oshiradi. Individual diagnostika qilish ham foyda berishi mumkin. Har chorakda yoki belgilangan davrda o'quvchining rivojlanishini baholash. Bu nafaqat o'quvchining qaysi mavzularda kuchli ekanini, qaysilari qiyinlik tug'dirayotganini aniqlashga yordam beradi, balki psixologik holatini ham kuzatadi. Shu tarzda o'qituvchi har bir bola uchun oson va qiziqarli ta'lim usullarini tanlay oladi. Har bir o'quvchi turlicha: biri matematikani tez o'zlashtiradi, biri esa ijtimoiy fanlarda yaxshi. Shu sababli yondashuv moslashuvchan bo'lishi kerak: o'quvchining qobiliyati, xulq-atvori, oilaviy sharoiti va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda darsni tashkil qilish. Masalan, uy sharoitida yordam beradigan ota-onaga ega bo'lgan bolaga mustaqil ishlash topshiriqlari berilishi mumkin, ammo uyda yordam yo'q bolaga darsda ko'proq individual vaqt ajratiladi.

Xalqaro tajribada Finlandiya (Sahlberg, 2011) va Yaponiyaning "Sansha ikka" tizimi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik yondashuvning samarali namunalari sifatida e'tirof etiladi. Finlandiya tizimida asosiy e'tibor o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga qaratiladi. Har bir bola turli qobiliyat va tezlikda o'rganadi: kimdir matematikani tezroq tushunadi, kimdir esa so'z boyligi yoki yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'proq vaqt talab qiladi. Shu

sababli, o'qituvchilar har bir o'quvchining qiziqish va zaif tomonlarini aniqlab, dars jarayonini shunga moslashtiradi. Masalan, kuchli o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar berilib, ularning qiziqishi uyg'otiladi; zaifroq o'quvchilar esa qo'shimcha tushuntirishlar va repetitsiya orqali qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu yondashuv nafaqat bilimni oshirishga, balki bolaning psixologik ishonchini mustahkamlashga turtki bo'ladi. Finlandiyada o'quvchilar maktabga borishni ijobiy qabul qiladi, chunki darslar ularning qiziqishi, dunyoqarashiga moslashtirilgan va ular har bir mavzu bo'yicha muvaffaqiyatga erishishiga yordam berishini biladi. Motivatsiya bu yerda asosiy o'rinni egallaydi: o'quvchilar o'z yutuqlarini ko'radi, mustaqil qarorlar qabul qiladi va doimiy ravishda o'z rivojlanishini baholash imkoniga ega bo'ladi. Shu orqali psixik jihatdan o'quvchilar yanada mustaqil va o'z-o'ziga ishonchi baland bo'ladi.

Yaponiyaning "Sansha ikka" tizimi esa o'quvchining individual xususiyatlari bilan bir qatorda oilaviy muhitni ham hisobga oladi. Har bir oila va bola sharoiti tahlil qilinadi, shuning asosida uyda va maktabda moslashtirilgan qo'llab-quvvatlash strategiyalari ishlab chiqiladi. Masalan, agar bola uyda ona yoki otasidan yordam olishi mumkin bo'lsa, uy vazifalarida qo'shimcha mashqlar beriladi; agar mustaqil ishlashni talab qilsa, o'qituvchi alohida sessiyalar orqali bolaning qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, pedagoglar muntazam ravishda qayta aloqa o'tkazib, bolaning rivojlanishini monitoring qiladi va kerak bo'lsa yangi strategiyalarni joriy qiladi.

Ikkala tizim ham bir nuqtada birlashadi: individual yondashuv bolani psixologik jihatdan rag'batlantiradi, uni o'ziga ishongan, faol va maqsadga yo'naltirilgan shaxs sifatida shakllantiradi. Shuningdek, motivatsiya, diqqat, ijtimoiy moslashuv va o'rganish tezligi kabi psixologik jarayonlar doimiy e'tiborda bo'ladi. O'qituvchilar pedagogik metodlarni shunday tanlaydiki, har bir o'quvchi o'z maqsadiga erisha oladi. Masalan, murakkab matematik topshiriqlarni kichik qadamlar orqali yechish yoki so'z boyligini oshirish uchun o'yin usullari bilan mashq qilish.

Metodik jihatdan bu yondashuv quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Tahlil bosqichi: O'quvchining qobiliyat, qiziqish va psixologik holati aniqlanadi.
2. Rejalashtirish bosqichi: Har bir o'quvchi uchun individual mashg'ulotlar, uy vazifalari va qo'shimcha topshiriqlar ishlab chiqiladi.
3. Ijro bosqichi: Rejalashtirilgan ishlar darsda yoki alohida sessiyalarda amalga oshiriladi.

4. Baholash va qayta aloqa: O'quvchining rivojlanishi doimiy monitoring qilinadi va ota-onalar bilan muhokama qilinadi, shuningdek, pedagog yangi metodlarni joriy qiladi.

Xulosa shuki, Finlandiya va Yaponiya tajribalari ko'rsatadiki, individual yondashuv nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning psixik holatini mustahkamlaydi, o'z-o'ziga ishonchini rivojlantiradi va motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan tizimli hamkorlik bolalarning uyda ham qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi, natijada ular o'z maqsadlariga samarali erishadi. Bu tajribalar O'zbek sharoitida moslashtirilgan, lekin bevosita ko'chirilmadi, balki o'quvchiga individual yondashuvni kuchaytirishga yo'naltirilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual ishlash samarali pedagogik jarayon yaratadi. Har bir o'quvchi bilan alohida ishlash nafaqat bilim va ko'nikmalarni oshiradi, balki motivatsiya, ijtimoiy ko'nikmalar va ota-ona bilan hamkorlikni kuchaytiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tizimli individual yondashuv maktabda va oilada ijobiy natija beradi. Kelajakda tadqiqotlar: turli maktablar, sinf darajalari va oila sharoitida individual ishlash samaradorligini kengroq o'rganish. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi – o'quvchi va ota-ona orasidagi ko'prik; ko'prik qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchi shunchalik erkin va ishonch bilan rivojlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bakhtin, M. (1981). Dialogik tasavvur: To'rtta esse. Austin: Texas universiteti nashriyoti.

2. Bertalanffy, L. von (1968). Umumiy tizim nazariyasi: Asoslar, rivojlanish va tatbiq. Nyu-York: George Braziller.

3. Epstein, J. L. (1987). Ota-onaning ishtiroki: Tadqiqotlar ma'murlarga nima deydi. Vashington, DC: Milliy fuqarolar qo'mitasi.

4. Epstein, J. L. (2011). Maktab, oila va jamiyat hamkorligi: Ta'limchilarga tayyorgarlik va maktablarni yaxshilash. Boulder, CO: Westview Press.

5. Hoover-Dempsey, K. V., & Sandler, H. M. (2005). Ota-onaning bolalarning ta'limidagi ishtiroki: Nega bu farq qiladi? Teachers College Record, 107(9), 1-20.

6. Muslimov, R. (2013). Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual yondashuv. Toshkent: O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot markazi.

7. Nishonova, M. (2018). O'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik strategiyalar. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.

8. Sahlberg, P. (2011). Finlandiya saboqlari: Dunyo ta'limidagi o'zgarishlardan nima o'rganish mumkin? Nyu-York: Teachers College Press.

9. Yo'ldoshev, Sh. (2015). Boshlang'ich ta'limda individual metodik yondashuv. Toshkent: Fan va texnologiya.